O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBIR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI YO’NALIShI

III-BOSQICH TALABASI

«MUSIQA TARIXI» FANIDAN

# KURS ISHI

**MAVZU: JAXON MUSIQA MADANIYATI TARIXIBA LUIDVIG VAN BETXOVEN IJODI**

**MUSIQA TA’LIMI 5111100**


**RAXBAR : M.Xakimov**

**BAJARUVChI: M.Sattarova**


**ANDIJON-2014**

**MUNDARIJA**

I. Kirish....................................................................................................4-6

II. Asosiy qism..............................................................................................7

1. Betxoven ijodi jaxon musiqa madaniyati taraxidagi ahamiyati.....................7 -11

2. Betxoven ijodini davrlashtirish...................................................................12-16

3. Luidvig Van Betxovenning “Egmont uvertyurasi”......................................17-21

III. Xulosa....................................................................................................22-23

IV.Foydalanilgan adabiyotlar...................................,,........................................24

V.Ilovalar........................................................................................................25

**MAVZU: JAXON MUSIQA MADANIYATI TARIXIBA  LUIDVIG VAN BETXOVEN IJODI**

**Reja:**

I. Kirish

II. Asosiy qism

1. Betxoven ijodi jaxon musiqa madaniyati taraxidagi ahamiyati.
2. Betxoven ijodini davrlashtirish
3. Luidvig Van Betxovenning “Egmont uvertyurasi”

III. Xulosa

IV.Foydalanilgan adabiyotlar

V.Ilovalar

# KIRISH

Jaxon musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri Bax, Gendel, Gaydn, Mosart hamda Betxoven kabi jaxon musiqa san'ati allomalarining ijodiy faoliyati yorqin namunadir. Ishtimoiy – tarixiy va g'oyaviy jixatdan muxim o'zgarishlar bilan nishonlangan, yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini oily janob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni, buyuk ustoz bastakorlarning maydonga chikishini talab etdi. Bilamizki, cholg'u musiqa, opera, oratoriya, vocal musiqaning barcha janrlarida chindan ham ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan. Musiqa san'atini vujudga kelishida va rivojlanishiga buyuk kompozitorlargina emas, balki musiqa madaniyatining turli soxalarida uncha dong chiqarmay ishlagan arboblar ham qatnashganlar. Biroq san'at sozasidagi ajoyib yutuklar, oldingi zamonlardagi kabi ijodiy yo'lalishlarning keskin kurashi vaziyatida qo'lga kiritilgan.

O'z davrlarida oqimlar kurashi xarakterli hususiyati bilan ajralgan. Bu kurash o'sha davrlarda ishtimoiy tafakkurga – falsafa, estetika, tanqid, publisistikaga ham hos bo'lgan. Jamiyatni demokratik asoslarda va aql idrokka suyanib qayta qurish to'g'risidagi yangi ilg'or g'oyalarni maydonga ko'ygan. Marifat davri bu g'oyalarni jamiyatning umrini yashab bo'lgan feudal tabakali negizlari, diniy xurofot va bid'atlarga qarshi o'larok ko'llab quvvatlagan. Marifat davrining ilg'or g'oyalari musiqada ham o'z aksini topgan. O'sha zamon uchun xarakterli bo'lgan tafakkur ratsionalizmi

umumlashtirgan musiqa obrazlarining tabiatiga ham, bularni mantikiy – konstruktiv tipda bayon qilish va rivojlantirishga ham ta’sir ko’rsatgan. Jamiyat hayotining g’oyaviy soxalaridagi, shu jumladan san’atdagi oqimlar kurashi kankret milliy – tarixiy shart-sharoitlarga qarab ayrim mamlakatlarda ham xar xil tus olgan va natijada o’sha paytlarda xali yosh bo’lgan Burjuaziya sinfining fiodal tuzumga qarshi kurashidan iborat bo’lgan.

Musiqa san’atida bu kurash musiqali teatr soxasida ayniqsa keskin bo’lgan. Italiya, Fransiya, Angliya va Germaniyada afsonaviy sujetlarga, qadimgi dunyo tarixiga asoslangan, jonli kizikishini yokotib ko’ygan va actual bo’lmay qolgan “Katta” operalar hali ham qo’yilgan. Manzaralarni sirtdan dabdabali va ser xasham qilib ko’rsatish maksadi ko’zlangani uchun ularda badiiy va dramatic xaqikat kurbon bo’lib kelgan. Bu xildagi opera asosan sroy doirasidagi aslzoda axliga xizmat qilgan, jmiyatdagi ilg’or demokratik qatlamlarning qarashlari va didlariga mos kelmagan. Shu operaga qaramaqarshi, realistic an’analarni o’z ichiga olgan demokratik opera san’ati vujudga kelib rivojlanib borgan.

Lekin cholg’u musiqa soxasida ham sanatkorlar umrini yashab bo’lgan, eskirib qolgan barcha narsalarni yengish vazifasini qo’yishdi, yangi mazmunni shakllantirish va gavdalantirib ko’rsatish talab qilingan. Cholg’u musiqa (simfoniya, sonata, konsert, kamer ansambli janrlari)da sonata – simfonik prinsiplari paydo bo’lishi, rivojlanib borishi va qaror topishi bilan nishonlangan. Bulardan oldingi davr cholg’u musiqasining asosiy shakllari fuga bilan syuita bo’lgan bo’lsa, endi o’zi hosil qilgan

shakllarning dialektikligi bilan ijtimoiy ongning birmuncha yuksak bosqichini aks ettiruvchi sonata ana shunday asosiy shakl bo'lib qolgan edi.

Sonata – simfonik sikli shu qadar umri uzoq bo'lib chiqdiki, juda xilma-xil milliy musiqa madaniyatlari va uslublarida hozirgi kungacha ham o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

**Kurs ishining dolzarbligi:** jaxon musiqa madaniyatida nufuzli o'ringa ega bo'lgan Betxoven ijodini, musiqiy estetik qarashlarini bugungi kundagi tinglovchini qalbiga etkazish uchun qilinadigan ilmiy amaliy ish jarayonlar asos qilib olingan.

**Kurs ishining maqsadi:** jaxon musiqa madaniyati durdonalarini yosh avlodga musiqa tinglash va uni taxlil qilish masalalarini ko'rib ishni yoriyish.

**Kurs ishining ob'ekti:** L.V.Betxoven ijodi va asarlari.

**Ishning nazariy-metodologik asoslari:** Prezident I.A.Karimov asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Davlat farmonlari, tadqiqot mavzusiga oid tadqiqotchi olimlar risola va qo'llanmalari hamda darsliklar tashkil etadi.

**Kurs ishining umumiy xajmi** kirish, asosiy qism uchta reja, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, har bir reja, asosli ravishda yoritilgan.

## 1.Betxoven ijodi jaxon musiqa madaniyati taraxidagi ahamiyati.

"Men tug'ilib o'sgan o'lka, ajoyib diyor edi. U hali ham ko'z o'ngimda huddi boshimni olib chiqib ketgan kunimdagidek o'z go'zalligi bilan yaqqol gavdalanib turadi.

**Betxoven.**

Bonning qadimiy qismidagi Songasse ko'chasida Kyolin Skiyning saroy sozandalari yashar edi. Knyaz kapellasining kapelmestri Lui van Betxovenning oilasi ham shu yerda yashardi. Lui zovor Betxoven izzat – ikromga sazovor bo'lgan hurmarli sozanda uning o'g'li Logarn esa kapellada ashulachilik qiladi. 1770 – yili 16 - dekabrda shu xonadonda Logarnninig to'ng'ich o'g'li kapelmestr Luining nevarasi Luidvid van Betxoven oilasida bola tug'ilgach Bongasseda bir qancha yillar tinch – totuv baxtiyor hayot kechirdi.

Keksa kapelmeystr o'g'liga doimo yordam berib kelini va nevarasidan tez – tez habar olib turardi. U nevarasini cho'qintirib unga buvasi sharifiga Lui (nemischa Lyuderg) deb ism qo'ydi. Lui Betxoven o'zi cho'qintirgan nevarasini juda ham yahshi ko'rardi. Lyudergni otasiga emas, balki buvasiga o'xshashini hamma e'tibor etardi. Lyuderg ham buvasini juda yahshi ko'rardi va u bilan faxrlanardi.

Keksa kapelmeystr hayotlik davrida Logarnninig oilasi muhtojlik sezmadi. Bu muxtojlik Lui Betxoven vafotidan keyin boshlandi. Buyumlarni va faqirona tor kulbalarini sotgach, uzoqroq tor ko'chadagi uylardan biriga ko'chib o'tishga to'g'ri keldi. Betxovenlar oilasi o'rnashgan uy bo'lkachi Fisherga qarashli edi.

Kopelmeystr Lui Betxoven shu uyda ko'p yillar yashagandi. Shu yerda Logarn ham o'sib ulg'aygandi.

Fisher Lyudergdan bir oz yoshroq o'g'li keyinchalik o'z estaliklarini yozdi, bu Betxovenning yoshligi haqidagi estalikdir. Orasi Lyudergninig ajoyib muzika iste'dodiga e'tibor berganda u hali to'tr yoshga ham to'lmagan edi. Logann xorda ashula aytishga yoki konsertga tayyorlanayotgan kezlari, Lyudergning diqqat bilan tinglab turishni hech kim ko'rmayapti deb o'ylab klavisinda turli kuylarni cholib ko'rishga harakat qilishini sezardi.

Logarn Lyudergdagi istedodga ishonch uni tez orada "Mo'jizali" - "Sexrli bola" qilib tayyorlash mumkinligini va bir ikki yil ichida uni atoqli muzika homiylariga ko'rsatishga qaror qildi.

Logarn bundan o'n to'rt yil ilgari besh yoshli Motsart o'z oilasiga davlat va shuhrat keltirganini juda yahshi bilardi. Bundan tashqari Lyuderg ham buvasi, otasi kabi kuyfyurs kapellasiga iloji boricha tezroq joylashi pul topishi kerak edi.

Musiqa mashg'ulotlari boshlandi. Dastlab Lyudergni otasining klavisin cholishni o'rgata boshlashdi. U kuniga besh sakkiz soatlab cholishga majbur etardi. Logarn Lyudergning endigina besh yoshga kirganligi haqida o'ylashni istamas, shuncha soat skamekada tik turish oson emasligini o'ylamas edi. Lyuderg skamekada tik turgandagina zo'r – bazor klavesinda zerikarli mashqlarni chalaverishi ba'zan joniga tegib ketardi. Logarnning o'zi o'qituvchi emasdi. Loganning dars berish haqidagi tasavvuri ham o'ziga xos edi. Lyuderg

yetarli darajada e'tibor bo'lmasdi, u o'g'lining yuziga shapatilab sochlaridan tortar edi.

Keyinchalik klavesin cholish mashg'ulotlariga organ skiripka va alt cholishni o'rgatish ham qo'shiladi. Bularni alohida o'qituvchi o'rgatardi. Otasi bu mashg'ulotlarni bir minut ham e'tibordan chetda qoldirmasdi. Ayniqsa Lyuderg bilan bir kapella sozandasi - otasining oshnasi mashg'ulotlar o'tkazganda unga og'ir bo'lardi, o'shanda Lyudvid endigina to'qqiz yoshga qadam qo'ygan edi. U klaversining oldiga kelganda yoki qo'liga skripka olganda darsni o'rgana olmasligini bilar va buning o'rniga tasavvurida paydo bo'layotgan kuylarni cholgisi kelar edi. Biroq otasi Lyudergning o'zi yaratayotgan muzikalarni cholishga intilishini telbalik va sho'xlik deb hisoblar, shunday ishlarga sezkorga vaqt sarflashga yo'l qo'ymas edi.

Lyuderg sakkiz yoshida klaversni juda yahshi choladigan bo'lgach Logarn "Mo'jiza" ni ommaga ko'rsatishga qaror qildi. U Lyudvigni Kyolinga olib bordi, bundan tashqari u onasi bilan birga Gallandiyaga – Rotterdamga ham borgan edi. Biroq bu konsertlar hech qanday mablag' va shuhrat keltirmasdi. Aftidan Logarn kerakli kishilar bilan aloqada bo'lish muomila qilishni ham bilmasdi. Lyuderg qaysarligi ustida "mo'jiza"ga ham to'g'ri kelmas edi. Lyuderg o'n yoshida bir necha cholg'u asboblarini chaladigan bo'ladi. O'sha davr sa'natida turli chog'lu asboblarida chalish odat bo'lgan bo'lsa ham ko'pgina katta yahshi sozandalar buni eplasha olmasdi. Bir kuni o'qituvchisi ibodatxonada bir savol bilan organ chalolmay qolganda Lyuderg unung o'rnini bo'lgandi.

Otasi “mo’jiza” bola yetishtirish orzusidan butunlay vos kechganda Lyudvig o’n ikki yoshga qadam qo’ygan edi.

Unung mashg’ulotlarini qattiq qo’llik bilan kuzatib turish tugadi. Bu qattiq qo’llikdan qutulgan Lyuderg improvizitsiyaga berildi. Lyuderg endi o’zining ko’pgina vaqtini fortepiyanada fantaziyalar yaratishga sarflaydi. Biroq ularni yozib bormadi.

1782 – yili Lyudergning hayotida muhim bir voqea ro’y beradi. U yaqindagina Bonrga kelgan saroy organisti va drijori kampazitor Gottlov Neefedan dars ola boshladi. Neefe Lyudvig bilan muzikachilardan keskin farq qilardi. Go’yo taqdir o’sha davrning eng ilg’or va ilmli kishilaridan bo’lgan bu ajoyib insonni Bornge – Betxoven bilan uchrashishga atayin yuborgandek edi. Lyuderg sozandalar orasida o’sdi. U kapelaga operalarga tez – tez borib turdi, yoshligidanoq o’zi chala boshladi. U Neefe o’tkazgan mashg’ulotlardan oldinoq ko’pgina klassik muzikalarni eshitgan edi. Ammo Lyudvig buyuk nemis klassiklarining asarlarini faqat neefe rahbarligidagina o’rgana bo’shladi. Bular uning keksa zamondoshlari Gaydn, Motsart, Flipp Emanuel Bax, Glyuk va olamdan o’tgan Logarn Sebast’yan Bax hamda Georg Fridrix Gendel asarlaridan iborat edi.

Lyuderg opera teatrida vaqtincha pianist bo’lib ishladi, ashulachilar bilan ashulalar o’rgandi va opera spektakllarni repetitsiya qilish vaqtida ularga jo’r bo’lib turdi. Lyuderg ikki yildan so’ng ya’ni o’n to’rt yoshidan boshlab kapellarda maosh olib ishlay boshladi. O’n olti yoshida Lyuderg jamoasi neefeninig yordamisiz ham Bornlik artistokratlar va ziyolilar orasida tanildi.

Uni muzika kechalarida hatto kurfyuvrist xonasiga taklif etishar va u o'zining omporizatsiya sa'nati bilan hammani hayratda qoldirar edi. Ko'pgina oilalar unga muzikadan dars berishni taklif qilishardi.

Lyuderg Motsart bilan tanishib undan laoqal bir nechta dars olishni orzu qilardi. Lyuderg Motsartni juda ham ulug'lar unung zo'r talantiga tan berardi. Lyuderg 1787 – yil bahorda Venaga jo'naydi. Lyuderg Motsartni uyida o'rtoqlarining orasida uchratdi. Motsart uni sovuqqina qarshi oldi. Uning oldiga ko'pincha is'tedodsiz bo'lishiga qaramay o'zini katta muzikachi deb hisoblaydigan yosh oliftalar kelib turishardi. Motsart unga kuy berdi. Ulug' ustozning ishtirokidan ruhlangan Lyuderg kuyni juda ajoyib choldi, holi hech qachon bunchalik chalmagan edi. Motsart Betxovenning chalishini ko'rib aniqrig'i his etib turardi. U borgan sari diqqat bilan berilib tinglar ekan oxiri do'stlariga Lyudergni ko'rsatib "Mana bunga e'tibor bering, bu butun jahonni lol qoldirardi!"deb xitob qilardi.

## 2.Betxoven ijodini davrlashtirish

Lyudevergning eng muqaddas tuyg'ulari amalga oshdi. Motsart uni eshitib unga tan beribgina qolmay balki u bilan mashg'ulotlar o'tkazishga rozi bo'ldi. Lyudvig Bornga qaytib ketish haqida holi o'ylamasdi ham. Keyin keyinchalik onasining sog'ligi yomonlashganligi uchun tezda Venadan jo'nab ketadi. Lyuderg besh yildan so'ng Venaga borganida Motsart vafot etgandi. U bor yo'g'i o'ttiz olti yil yashab 1791 – yilda vafot etgandi. Lyuderg 1789 yil may oyida Meefening maslahati bo'yicha Born Universitetining falsafa fakultetiga o'qishga kirdi. Universitetida u hammasi bo'lib bir yil o'qidi. O'qishni nima sababli to'xtatib qo'yganligi noma'lum. Aftidan uning vaqti va kuchi yetmaganligidan bo'lsa kerak chunki bu paytlari u ko'p dars berar xizmat joyida kamermuzikus vazifasiga tayinlangan edi.

Betxoven Venaga 1792 yili noyabr o'rtalarida keldi.Betxoven darxol Vena aristokratlarining muzika saloniga qabul qilindi va ularning hurmatiga sazovor bo'ldi, bunda graf Val'ishteynning tavsiyasi yordam berdi. Betxoven biografiyalaridan birining aytilishicha van Betxoven ismidagi "van" qo'shimchasi ham hatto rol o'ynagan. Lyuderg Venaga kelgandan keyin ko'p o'tmay Gaydn huzuriga bordi. Maestro uni juda samimiy qabul qildi. Gaydn bunday ahvoldagi muzikachilarda pul bo'lmasligini tushunib u darslarga to'lanadigan har qancha haqdan voz kechdi. Betxoven Gaydnda ikki yilga yaqin shug'ullandi. 1795 yil Betxovenga ko'pgina quvonchli voqealar olib keladi. Bu

yilda Vena uni kompazitor sifatida tanitdi. Bunda uning uchta fortepiano triosi ( skripka, vionelchel va fortepiano uchun) katta ro'l o'ynadi.

Bu asarlarni mashxur nashryotchi Artariya nashr qilgandi. Betxoven o'z triosini Londondagi eng yahshi muzikachilar yuqori baholanganlarini tez orada eshitdi. Betxoven 1796 yili boshida Pragaga jo'naydi. Pragada bergan konsertlari katta muvaffaqiyat bilan o'tdi. U italyan tilida ovoz va orkestor uchun ariya va chembolo va mandalina uchun bir qator pesalar ijod qildi. Betxoven Pragadan so'ng Germaniya janubiga – Nyuberg va Bremenga jo'nadi. Betxovenning nomi kompazitor sifatida borgan sari mashhur bo'la bordi. Bazi muzikachilar Betxoven Gaydn va Motsart ishlarini davom ettiradi deyishardi. Betxoven kompazitor va mohir muzikachi sifatida shuhrati o'quvchilarni o'ziga jalb etdi. Ularning ba'zi birlari keyinchalik mashhur muzikachi bo'lib yetishadi. 1800 yili boshqa ma'lumotlarga qaraganda 1801 yili Betxovenning yangi do'stlaridan biri Amenda va Vegler undan xat oldilar. Betxoven xatida eng qimmatli a'zoi eshitish qobiliyati pasayotgani haqida ma'lum qiladi.

Betxoven besh yil ichida (1796 – 1800) juda ko'p asar yozdi. Fortepiana uchun to'qqizta sanata fortepiana va skripka uchun daslabki besh sanata (1798 – 1800) orkestr va fortepiano uchun uchta konsert (1795 – 1798 va 1800) oltita kamonli kvartet 18 – muzika asari va Birinchi simfoniyasi (1800) shular jumlasidan hisoblanadi.

Bu asarlarning ko'pchiligida inson his tuyg'ulari haqida insonning umidsizlikni yengishi haqidagi fikr ilgari suriladi. Bu asarlarda fikr ilgari g'oyalarni insoniyat taqdiri bilan bog'liq bo'lsa buyuk kompazitor

grajdaninning ovozi aniq yangrab turadi. Fortepiano sanatalarining har biri bir dunyo tafakkur va his obraz va kayfiyatlardan iborat. Goho qo'qqisdan shamol bo'rondan ham kuchli bo'lgani chaqmoq chalib momaqaldiroq guldiragani kabi birinchi sanataning jaranglashida biz bir qator sanatalardagi kuchli stixigani his etamiz. Ikkinchi qismida esa quyoshli bahor kunlarining shodiyonasini sezamiz. Beshinchi sanata o'zidagi g'azabkor isyonning kuchayishi va qayg'u zorlanish tuyg'ulari bilan boshqalardan keskin ajrab turadi.

Qisqa muzika jumlalari otashin ixcham inson nuqtaga o'xshab ketadi. Betxoven 1801 yil fortepiano va skripka uchun quvonchli bahor nafasi bilan sug'orilgan beshincha sanatasini yozdi. Fortepiano uchun o'n uchinchi sanatasini yozadi. Buning kuchli jo'shqin quvonchi birinchi marta bu taxlitda tasvirlandi. Betxoven o'sha yilning o'zida fortepiano uchun o'n beshinchi sanatani ijod qildi: u eshituvchi tasavvurida osoyishta qishloq tabiati manzarasini hosil etadi. Buni " Postorol" deb ataydilar bundan keyin " oltita qishloq raqsi" keladi. Betxoven muzika qudrati ulug'vorligi va go'zalligi

1803 – 1804 yillardagi asarlarida birinchi bor erishdi. Bular: uchinchi ("Qahramonlik") simfoniya fortepiyana uchun yozilgan "Avrora" va "Apposionata" deb ataluvchi ikkita sanata hamda skripka va fortepiana uchun yozilgan "Kreytser sanatasi" edi. U 1810 yilda Gyotening nider landlarning 16 – asrdagi ispan saltanatiga qarshi olib borgan qahrmonlik kurashlariga bag'ishlangan "Egmond" tragediyasiga muzika yozdi Betxoven teatr zakasi bilan bir trgediyaning verturiyasini dovyuraklik, qahramonlik ko'rsatish orzusida yurgan Egmont sevgilisi Klerxening ikkita ariyasini to'rtta antarktini

Klarxen o'ladigan sahnani Egmont o'limidan oldin qamahhonada aytadigan monologini yozdi. Egmont bu monologida halqni qo'lga qurol olib yaramas zolimlarga qarshi kurash chiqishga chaqiradi. Muzikaning oxirigi qismidagi "G'alaba simfoniyasi" vertyuraning xotimasi hisoblanadi. Betxoven 1823 – yili tantanali messa 1824 – 1826 yillari oxirgi beshta kvartetini yaratdi. Betxoven ijodining so'ngida yaratdi. Betxoven ijodining so'ngida yaratilgan bu asarlar fikr va tuyg'uga boyligi chuqur mazmuni bilan ajralib turadi. Bularning orasida ham yumorga to'la hazil mutoyibalar uchraydi. Fortepiana uchun yozilgan "yarim tiyin deb fig'oni falak bo'lmoq" deb ataladigan rando shunday asardir.

Betxovening eng yirik asari ijodining xotimasi To'qqizinchi simfoniya bo'ldi. Bu Betxovening hajm jihatdan katta obrazlari jihatidan juda boy simfoniyasidir. U inson taqdiri haqidagi fikrlar bilan sug'orilgan insonning ozodlikni qo'lga kiritishga uqubat chekishlari shodlikka olib borishga kurash g'alaba bilan tugashiga ishonch o'z ifodasini topgan. Uchinchi simfoniyadagi ulug'vor epos to'qqizinchi simfoniyada yangi kuchga erishdi. Bundagi qayg'u o'z salobati va ta'siri jihatidan " Apposiodagi" fikr okean singari cheksiz uchinchi bilan ham tenglashtirib bo'lmaydi. Uning finali ham misli ko'rilmagan darajada ulug'vordir. Unda faqat orkestorgina emas balki solistlar ham ishtirok etadi. Unda shillerning "shodlikka" odasidagi ilhom to'la so'zlari yangraydi.

Bo'lajak xor kuyining dastlabki varianti Betxovenning yoshlikda yozgan "Oshiq mashuqlar" qo'shig'ida yaratilgan edi. Keyinchalik bu kuy

fortepiyano xor va orkestor uchun yozilgan Fantaziyada ko'rindi. Yillar poziyasidagi obrazlar Betxovenninig qalbida chuqur iz qoldirdi. Bu she'rlardagi inson va insoniyatda bo'lgan qizg'in muhabbat uning bahti uchun kurashish unga bo'lgan ishonch g'oyalari bilan Betxovenga yaqin edi. Shodlik temasi dastlab past tonlarda asta – sekin so'nga butun orkestr bilan yangraydi. Muzika orasida tantanali so'zlar ham eshitiladi. Bu tinchlik va shodlik simfoniyasi millionlarni birlashishga chaqirish bilan tugaydi. To'qqizinchi simfoniya birinchi marta 1824 yili yettinchi mayida ijro etildi. "Muvoffaqiyat zo'r tantana olqishlarga to'la bo'ladi. Betxoven paydo bo'lganda ya'ni besh marta guldros qarsaklar sadosi ostida olqishladilar, o'sha paytlari imperator ham faqat uch marta guldros qarsak bilan olqishlanar edi. Olqishni to'htatish uchun palitsiyaning aralashuvi lozim bo'ldi. Simfoniya tinglovchilarda kuchli hayajon paydo qildi. Ko'pchilik yig'lab yubordi. Biroq muvaffaqiyat bir lahzali bo'ladi va hech qanday amaliy natija bermadi. Konsert Betxovenga hech narsa keltirmaydi. Uning og'ir moddiy ahvoli hech qanday o'zgarish ro'y bermadi. U yana o'shanday qashshoq kasalmandligicha qolaverdi. (Romen Rollan)

Betxoven to'qqizinchi simfoniya yaratilishi dan avvalgi 1822 – 1823 yillar hatto barcha og'ir yillarga qaraganda ham juda qiyin bo'lgandi.

Betxoven 1827 – yilning 26 - martida olamdan o'tdi. U kunduzgi momaqaldiroq paytida vafot etdi.

**"Uqubatlat shodlikka eltar"**

Betxoven.

## 3. Luidvig Van Betxovenning “Egmont uvertyurasi”

Buyuk nemis kompazitori Betxoven 1770 yil kichkinagina Bon shaxrida tug`ilgan. Yosh Betxoven musiqachilar oilasida katta bo`lgan, uning otasi va bobosi skripka chalib knyaz kapellasida xorda kuylashgan. Keyinchalik kopelmaystr bo`lib ishlagan. Yosh Betxovenga dastlabki musiqa savodlarini otasi bergan. Dastlab klavesin chalishni, keyinchalik otasining do`stlaridan skripka, organ va alfa chalishni o`rgangan. Bir kunda 7-8 soat mashq qilishni otasi undan qattiq talab qilar edi. Mashakkatlari natijasida Betxoven 8 yoshida birinchi bor Kemey shaxrida kontsert bergan, shu yoshida maktabga borgan. 12 yoshida Betxovenni onasi kattik, kasal bo`lib qoladi, bu esa unga qattiq ta'sir ko`rsatadi, shu sababli Betxoven Kopellada organchi bo`lib ishlaydi.

Betxoven 1782 yilda Kristinnefi bilan uchrashadi Kristinnefi unga taniqli nemis kompazitorlari L.S.Bax, Gaydn, Mozart kompozitorlarning kuylari bilan tanishtiradi va Betxovenga musiqa yozishni o`rgatadi. U lotin, frantsuz va italiyan tillarini o`rgandi. Keyinchalik Vena shaxriga kuchib kelib taniqdi kompozitor Mozart bilan uchrashib yangi asarlar yaratdi.

1792 yili 22 yoshli Betxoven Vena shaxriga ko`chib kelib umrining oxirigacha shu joyda yashadi. Bu erda Betxovenning nomi pianist sifatida juda tez tarqaydi.

Betxoven umrining eng fojiali davri uning eshitmay krlishi bo`ladi. U bunday xolatini 28 yoshida birinchi bor sezib juda ko`p davolandi, lekin foydasi bulmaydi. Musiqani yoqtirgani sababli asarlar yozishni davom ettirdi. U bu davrida

"Egmont", "Karilon" uvertyuralarini, fortapiona sonatasi va sikripka uchun sonata kvarteti "Piddimio" qaxramoni operasini xamda qo`shiqlar yozgan. Sekin-asta saxnani tashkil etdi.

Umrining eng oxirgi yillarida 1824 yili "Tantana" pesa asarlarini xor uchun lotin tilida ezdi. Bu yillarda u oxirgi 9-simfoniyasini yaratdi. Umrining oxirida u buyrak kassaligiga chalinadi 1827 yili to`rtinchi operatsiyadan Betxoven yaxshi chiqmadi va vafot etdi. Uning Vena shaxridagi uyi muzayga aylantirildi.

**Betxovengning ijodiy me'rosi**

9 ta simfoniya, 11 ta unvertyura, 16 ta torli kvartet, 32 ta sonata, 32 ta varyatsiya, 40 yaqin qo`shiqlar orkestr uchun kontsentrlar yaratgan.

Potetik fojia asosida yozilgan. "Egmont" unvertyurasini kompazitor Lyudovig van Betxoven 1810 yilda yozgan. Fojia Betxovenni qaxramonona mazmunida yaratilishini ko`rsatadi. O`zgacha xarakatdagi unvertyurasi 10 tacha bo`lib, shunday asarlardan birinchisi xisoblanadi. **"Egmont"** fojiasi XVI-acpra borib taqaladi, ya'ni Niderland xalqi dushman ispanlarga qarshi kurashadi. Xalq kurashini graf Egmont boshqaradi, jasur va botir Egmont kurashda xalok bo`ladi. Kompazitor o`zining 5-simfoniya voqeasini 4-qism orqali ko`rsatgan bo`lsa, unvertyura kurashini asosiy daqiqalarini joylarini yigit shaklda ko`rsatgan. Uvertyura sekin kirish qismi bilan boshlanadi, 2 ta qarama-qarshi mavzular akdordlar tantanali tarzda bo`lib past registor va minor ladi ijrosini ko`rsatadi. 2-mavzuni Gaboy kuylaydi. Unga boshqa qadimiy puflama asboblar jo`r bo`ladi. Keyinchalik asosiy kuy oxangida sekundali intonatsiya bo`lib mavzu iltimos qiluvchi ustidan arz qiluvchi oxangidagi kuylarni ijro etiladi

Unvertyura sonata allegartto shaklida yozilgan. Bosh qaxramonona xarakatdagi la-minor to`mligida tuzilgan asarni eslatadi. Dastlab pastki registorda asboblar violanchel va boshqa torli asboblar butun arkestirda ijro etiladi.

Sekundali yurishlar bosh va kirish qismini boshlaydi. Yordamchi kurash qismini boshlaydi. Yordamchi kurash qismi bilan bog`langan lua major tanligida tantanali tarzda g'alabadagi ijro ifodalaniladi va bu xolatda akordli bo`lib torli asboblar ijro etilidi. 2 bo`lagini past tovushlarda qadimiy asboblar ijro etadi.

**Lyudovig vann Betxovenning 5-simfoniyasi**

Taniqli kopazitor Lyudovig van Betxoven 1808 yil o`zining 5-simfoniyasini yozib tugatdi. Simfoniya 4 qism. Ularni 1 ta fikr, 1 ta mazmun bog`lab turadi. Simfoniyaning asosiy g`oyasi Korong`ulikdan yorug`likka kurashi orqali g`alabasi deb atalgan. Epigraf sifatida kirish qismini "Taqdir" mavzusi deb yaratgan. Bu mavzu insonda yakka arkestirdagi asboblar bitta asarni ijro etadi. Simfoniya dastursiz bo`lib, tuzilishi adabiy suyujetta emas. Simfoniya inson quvnoqlik va baxtga erishish uchun qilgan kurashi xar qismda xar-xil vaziyatda ko`rsatildi.

**"Egmont uvertyurasi"**

**1-qism Sonata-**Allegrosi shaklida allegro sanatida triolar tez o`tkir templarda yozilgan. Bu pe'sada simfoniya birinchi bo`lib rivojlangan sifatida aniq ritmda yozilgan. Bu mavzuda notinchlik bo`lib dominantalarga bo`linadi. Bu to`xtalish belgisiga bog`liq. Yana taqdir mavzusi eshitiladi va boshqa pe'sa davom etadi. Sekin asta fforta simoga elitib bog`lovchi pe'sa undan esa yordamchi pe'saga S-durning dominantasi orqali o`tiladi. Yordamchi pe'sa Voltorna solasi bilan boshlanadi. Yangi kuychan mayin yorqin oxangdagi kuy, kuyni sikripka ijro etadi.

Lekin asosiy bo`lakdagi ritm bu erda yo`qolmaydi. Ballda ijro etib tuziladi. Ekspozittsiya yakunlovchi pe'sani yakunlayda. Orkestirda asosiy mavzu yechim va g` alaba oxangida major tangligida bir necha marotaba takrorlanadi. Butun asosiy motiv rivojlovi asosida tuzilgan. 1-qism qayta lad bilan yakunlanadi. Yangi kuch bilan yana taqdir mavzusi ijro etiladi. Xayot beshavqat g'alabaga esa xali uzoq.

**2-qism Andante-**Sonata shoshilmasdan xarakat bilan Lya bemol major kurashi biroz tuxtatiladi va xarakterli ritm paydo bo'ladi. 2-qismda uzida varyatsiya tashkil qilinadi. Bu varyatsiya tashkil qilinadi. Bu varyatsiya 2- mavzu asosida yozilgan 1 - mavzu kuychan, chuqur va jiddiy uning melodiyasi alt va violanchel ijro 2- mavzu 3L marsh ritmdagi kushikdarga uxshaydi. S-turdagi bu mavzu 1ta odamni emas, balki butun xalqni kursatganday bo'ladi. Bu fikr xarakteri tuzilishi arkestr tuzilishi bilan tonligi bilan xam kontrastlashadi (keskinlashadi). Xammasi bulib 6 ta varyatsiya bor, ular birin-ketin tuzilishi oxangi tuzilishi kuyi uzgargan xolda ijro etiladi.

**3-qism Allegro-**Smoshersu. 3-qism musiqasida 1-qism kayfiyati takrorlanadi. Kurash yangi kuch bilan ijro etiladi. Tushanchal asosidagi kuylar, xayojonli, izlanuvchan xarakterda violanchel va kontrabas ijro etadi. Torli cholgular davom ettiradi. Xarakat savol berganda dominantaga yakunlanadi. Savol 2-marotaba takrorlanadi. Javob sifatida takdir mavzusi ijro etiladi. 3-qism Z-qismli shaklda yozilgan bulib urta qismi xal k; kuvonchini kursatadi. Uning asosida xalq xarakteridagi rakeli mavzular yoritiladi. Bu kiem S-dur tonligida kontrabas, sikripka va boshqa asboblar polifonik shaklda ijro etiladi.

3-4-qism mavzuli bulib, S-dur tonligini boglab turadi. 3 ta pianissimadan 2 ta fortafinaga boshlanuvchi finalga olib boradi.

**3-qism Final**-Simfoniya kontatalar tushiniladi. Xalq g'alabasini bayram kayfiyatida yozgan. Final sonata allegrosi shaklida bulib undagi mavzu yorqin bayramona xarakterda.

Orkestr yangi asboblar fleyta rikotrambor, kontrofogatler, musiqaga uzgacha chiroy baxsh etgan. Urta qism oxirida taqdir mavzusi past ovozda kurash xaqida eslagada xayojonli oxangda ijro etiladi.Final katta koda bilan tugaydi. Uni massali bayramona kayfiyatini xalq tantanasining yovuzlar ustidan kozongan g'alabasi ko'rsatiladi.

Betxoven 5- simfoniyasi Yaydin va Mozartning simfoniyasidan kup jixatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan Betxoven 4 ta kiemning 1 ta fikr bilan boshlagan "Korongulikdan yovuzlikka", "Kurash orqali g'alabaga","Takdir" kabi mavzulari boshlovchi mavzu boshlashning asosiy urnini egallagan. 5-simfoniyada kurashdagi 2 ta dushman kuchi rivojlovda berilgan. Bu asar ork;ali kompazitor Lyudovig van Betxoven juda katta yutuqlarga erishgan.

Betxoven 1770

Betxoven 1787 Venada.

Motsart atoqli dirijor

1789 yil Bon Universitetida

# XULOSA

Chet el musiqa madaniyati tarixini o'rganish G'arb kompozitorlarining yuksak badiiy saviyada yozilgan asarlarni o'rganish, ularning kasbiy mahorat jihatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarni yoritib berish, turli janrdagi asarlarning mazmunini idrok etishga, jahon klassik  musiqasiga xos bo'lgan badiiy ifoda vositalarini o'rganish ushbu fanning vazifalaridan xisoblanadi. Musiqa sanъatidagi mavjud janr va shakllarning taraqqiyotida «CHet el musiqa tarixi» fanida XVII-XIX asr chet el kompozitorlarining ijodini o'rnagish nazarda tutilgan. Unda g'arb kompozitorlik maktabining shakllanishi, musiqiy janrlarning paydo bo'lishi, vena klassaik maktabi ijodkorlari, musikada romantizm yo'nalishi vakillari musiqasi o'rganiladi. Jahon musiqa durdonalari bilan yaqindan tanishish va o'rganish, mashhur g'arb klassik kompozitorlarining musiqasini bilish talabalarning musiqiy-tarixiy bilimlarini kengaytiradi, badiiy saviyasini oshiradi.

Jaxon musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri Bax, Gendel, Gaydn, Mosart hamda Betxoven kabi jaxon musiqa san'ati allomalarining ijodiy faoliyati yorqin namunadir. Ishtimoiy – tarixiy va g'oyaviy jixatdan muxim o'zgarishlar bilan nishonlangan, yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini oily janob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni, buyuk ustoz bastakorlarning maydonga chikishini talab etdi. Bilamizki, cholg'u musiqa, opera, oratoriya, vocal musiqaning barcha janrlarida chindan ham ulkan yutuklarni qo'lga kiritgan. Musiqa san'atini vujudga kelishida va rivojlanishiga buyuk kompozitorlargina emas, balki

musiqa madaniyatining turli soxalarida uncha dong chikarmay ishlagan arboblar ham qatnashganlar. Biroq san'at sozasidagi ajoyib yutuklar, oldingi zamonlardagi kabi ijodiy yo'lalishlarning keskin kurashi vaziyatida qo'lga kiritilgan.

O'z davrlarida okimlar kurashi xarakterli hususiyati bilan ajralgan. Bu kurash o'sha davrlarda ishtimoiy tafakkurga – falsafa, estetika, tankid, publisistikaga ham hos bo'lgan. Jamiyatni demokratik asoslarda va aql idrokka suyanib qayta qurish to'g'risidagi yangi ilg'or g'oyalarni maydonga qo'ygan. Marifat davri bu g'oyalarni jamiyatning umrini yashab bo'lgan feadal tabaqali negizlari, diniy xurofot va bid'atlarga qarshi o'laroq qo'llab quvvatlagan. Marifat davrining ilg'or g'oyalari musiqada ham o'z aksini topgan. O'sha zamon uchun xarakterli bo'lgan tafakkur ratsionalizmi umumlashtirgan musiqa obrazlarining tabiatiga ham, bularni mantiqiy – konstruktiv tipda bayon kilish va rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Karimov I.A. Yuksak ma’nviya – engilmas kuch –T.: O’zbekiston,2008.
2. R. I.Akbarov. Muzika lug’ati. 1987.
3. К.Розиншильд История зарубежное музыки. Москва 1969
4. B.Levik Chet el musiqa tarixi T. G’.G’ulom 2008
5. М.Друскин. История зарубежное музыки 1981
6. А.Коженова История зарубежное музыки М. Музыка 1988
7. A.X.Trigulova Xorijiy musiqa adabiyoti T. Ilimzie 2009
8. A.X.Trigulova CHet el musiqa tarixi. Romantizm davri T.,Nizomiy nomli TDPU 2008
9. B.Levik CHet el musiqa tarixi T.O’qituvchi.1984̃


**Elektron – ta’lim resurslar**

***www.tdpu.uz***

www.pedagog.uz

www.Zionet.uz

tdpu-INTRNET. Ped



**LUIDVIG VAN BETXOVEN**
**(1770 –1827 )**